



**DUNYO DINLARINING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI: UMUMIY
QADRIYATLAR VA XILMA-XILLIKLAR TAHLILI**

Ziyodullayeva Nargiza

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogik instituti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
102-guruh talabasi.*

Turg'unboyeva Muxlisa

Ziyodullayeva Nargiza

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogik instituti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
102-guruh talabasi.*

Ne'matova Ruxshona

Ziyodullayeva Nargiza

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogik instituti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
102-guruh talabasi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyo dinlarining asosiy turlari – Islom, Xristianlik, Yahudiylik, Buddizm, Hinduizm va boshqa diniy tizimlarning umumiy qadriyatlari, diniy e'tiqodlaridagi o'xshashliklar va farqli tomonlari tahlil qilinadi. Maqola orqali dinlararo muloqot, bag'rikenglik va madaniy xilma-xillikni tushunishga yordam beradigan muhim fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Dinlararo muloqot, Islom, Xristianlik, Buddizm, o'xshashlik, farq, qadriyat, diniy e'tiqod.



Dunyo xalqlari qadimdan diniy e'tiqodlarga tayanib yashab kelgan. Har bir din insoniyatning axloqiy, ruhiy, ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutadi. Turli dinlar mavjud bo'lishiga qaramay, ularning aksariyatida ma'naviy va axloqiy qadriyatlar, insonparvarlik g'oyalari o'xshashdir. Shu bilan birga, ularning aqidaviy, marosimiy va falsafiy jihatdan farqlari ham mavjud.

Insoniyat taraqqiyoti davomida din va axloqiy qadriyatlar har doim bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib kelgan. Har bir jamiyatda shakllangan axloqiy me'yorlar, ko'pincha, mavjud diniy e'tiqodlar asosida yuzaga keladi. Din — bu nafaqat ma'naviy e'tiqod tizimi, balki u insonlarning kundalik hayot tarzini, o'zaro munosabatini, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qarashlarini tartibga soluvchi asosiy qadriyatlar majmuasidir. Dinlar tarixan odamzodga qanday yashash, qanday qarorlar qabul qilish va jamiyatda o'zini qanday tutish lozimligini ko'rsatib bergan yo'l-yo'riqlar tizimi bo'lib xizmat qilgan.

Dunyo xaritasidagi har bir xalq va millatning o'ziga xos dini, urf-odatlarini, madaniy qadriyatlari mavjud. Ana shu qadriyatlar va e'tiqodlar har bir xalqning yurish-turushi, fikrlash tarzi, odob-axloqi va butun hayot faoliyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo'ladi. Biror xalq yoki millatning tarixini, ijtimoiy tuzilishini va madaniy taraqqiyotini tahlil qilishda, uning diniy e'tiqodlarini chetlab o'tish mumkin emas. Chunki diniy qarashlar o'sha xalqning hayot falsafasini, qadriyat tizimini va madaniy merosini shakllantirgan muhim omillardan biridir.

Din falsafasi esa — diniy qarashlarni chuqurroq, falsafiy va tafakkurga asoslangan holda tahlil etuvchi ilmiy sohaga aytiladi. U boshqa dinshunoslik yo'nalishlaridan farqli ravishda, faqat diniy matnlarni tushuntirish bilan cheklanmaydi. Din falsafasi — e'tiqod, ilohiyot va insonning diniy haqiqatlar bilan bo'lgan bog'liqligini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishga intiladi. Uning asosiy mavzulari qatoriga quyidagilar kiradi: Xudoning mavjudligi va uning sifatleri, yaratuvchilik mohiyati, koinot va yaratuvchi o'rtasidagi munosabat, borliqning yaratilish maqsadi, qayta tirilish, vahiy, payg'ambarlik, diniy haqiqatning mohiyati va diniy tajribaning inson hayotidagi o'rni.



Shuningdek, din falsafasi boshqa fanlar, jumladan: ilm-fan va din o'rtasidagi aloqalar, din va madaniyat (ya'ni san'at, til, adabiyot bilan o'zaro bog'liqlik), diniy hissiyot va diniy ong masalalarini ham o'rganadi. Bu soha faqat hukm chiqarish yoki muayyan baholar berish bilan cheklanmay, balki diniy fanlarning ilgari surgan g'oyalari, qo'llagan uslublari va erishgan natijalarini ham tahlil qilib, umumiy falsafiy xulosa chiqaradi.

Shunday qilib, din falsafasi — nafaqat diniy bilimlar, balki kengroq metafizik, ontologik va epistemologik sohalarni ham o'z ichiga oladi. Bu esa uni insoniyat tafakkuri va ruhiy-ma'naviy taraqqiyotining ajralmas qismiga aylantiradi.

Umumiy o'xshash jihatlari shundan iboratki:

a) Ilohiy kuchga ishonch-Aksariyat dinlarda yagona Yaratgan yoki ilohiy kuch borligiga ishonch mavjud. Masalan, Islomda Alloh, Xristianlikda Xudo, Yahudiylikda Yehova, Hinduizmda Brahma, Buddizmda esa muqaddaslik tushunchasi mavjud.

b) Axloqiy-ruhiy qadriyatlar-Barcha dinlar halollik, saxiylik, sabr-toqat, adolat, mehnatsevarlik kabi ijobiy fazilatlarni targ'ib qiladi. Bu qadriyatlar jamiyatda tinchlik va totuvlikni saqlashga xizmat qiladi.

c) Ijtimoiy tartib va marosimlar-Diniy marosimlar (namoz, ro'za, ibodat, zakot, qurbonlik, bayramlar) ko'plab dinlarda mavjud. Bu marosimlar jamiyatda birlik, mehr-oqibatni mustahkamlaydi.

Farqli jihatlar esa quydagilardan tashkil topgan:

a) Aqidaviy tafovutlar-Islomda Muhammad (s.a.v) Allohning so'nggi payg'ambari hisoblanadi, Xristianlikda Iso (a.s) Xudoning o'g'li deb e'tirof etiladi. Buddizmda esa payg'ambarlik tushunchasi emas, balki ruhiy taraqqiyotga urg'u beriladi.

b) Marosim va ibodat shakllari-Musulmonlar kuniga besh mahal namoz o'qiydi, xristianlar yakshanba kuni cherkovga borib ibodat qilishadi. Buddistlar meditatsiya (mushohada) orqali ichki poklikka erishishga intilishadi. Hinduizmda esa ko'plab xudolarga sig'inish odatiy hol.



c) Hayotdan keyingi hayotga munosabat-Islom, Xristianlik va Yahudiylikda oxirat, jannat-do'zax tushunchasi mavjud. Buddizm va Hinduizmda esa reen Karnatsiya – ruhning qayta tug'ilishi g'oyasi mavjud.

Shuni ham aytish mumkinki, insoniyatning dunyo va borliqqa munosabati har doim ma'naviy va tafakkuriy izlanishlar orqali ifodalangan. Bu jarayonda diniy dunyoqarash muhim o'rin egallaydi. Diniy dunyoqarashga ko'ra, inson hayoti qandaydir absolyut kuch – ya'ni ilohiy zot, oliy iroda yoki muqaddas haqiqat bilan chambarchas bog'liq holda tushuniladi. Bu qarash doirasida inson faoliyatining asosiy maqsadi — ushbu oliy kuchga itoat qilish, uning qonun-qoidalariga amal qilishdan iborat. Dindor kishilar uchun bu oliy kuch mutlaq haqiqat manbai hisoblanadi. Ular hayotdagi muhim qarorlarni qabul qilishda, axloqiy mezonlarni aniqlashda shu manbaga tayanadilar.

Shuningdek, diniy dunyoqarashda ruhoniylar shaxslar – ya'ni diniy bilim sohiblari va oqsoqollar jamiyatda muayyan mavqega ega bo'ladi. Ular ilohiy risolalarni, vahiylarni xalq orasida tarqatadi, diniy qoidalarni tushuntiradi. Ammo ularning roli ko'proq vositachilik, targ'ibot va tushuntirish bilan chegaralanadi. Asosiy e'tibor esa oliy kuchga, ya'ni ilohiy mavjudotga qaratilgan bo'ladi.

Boshqa tomondan, falsafiy dunyoqarash — bu inson tafakkuri orqali dunyoni, borliqni tushunishga qaratilgan aqliy va nazariy qarashlar tizimidir. Falsafa inson ongining mantiqiy kuchi, tanqidiy tahlili va mustaqil fikrlashi orqali voqelikni anglashni maqsad qiladi. Bu yondashuv diniy dunyoqarashdan farqli ravishda, ko'proq aql, mantiq, tajriba va tahlilga asoslanadi. Falsafiy dunyoqarashda voqelikni tushuntirish uchun afsonaviy obrazlar, ramzlar yoki vahiylarga emas, balki rational mushohadalar, mantiqiy dalillar, nazariy umumlashtirishlar va erkin fikrlarga tayaniladi.

Falsafiy dunyoqarash, shuningdek, olamga, jamiyatga va insonga bo'lgan eng umumiy, keng qamrovli qarashlar tizimi sifatida ham ta'riflanadi. U insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ilm, madaniyat, san'at va texnologiyaga katta ta'sir ko'rsatgan. Aynan shuning uchun ham falsafa doimo insonning erkinligi, tanqidiy fikrlashi va ruhiy-axloqiy kamoloti bilan chambarchas bog'liqdir.



Zamonaviy dunyoda diniy bag‘rikenglik va dinlararo muloqotni yo‘lga qo‘yish global tinchlik uchun zarur. Har bir dinning o‘ziga xosligini hurmat qilish, umumiy qadriyatlarga tayanish – tinch jamiyat poydevoridir.¹

Xulosa qilib aytganda, dunyo dinlari o‘rtasida o‘xshashliklar juda ko‘p: axloqiy qadriyatlar, Yaratganga ishonch va jamiyatga foydali bo‘lishga intilish. Farqlilik esa dinlarning tarixiy, madaniy va geografik rivojlanishiga bog‘liq. Dinlararo tushunish va hurmat uyg‘otish bugungi globallashuv jarayonida muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nasr, S. H. (2003). The Heart of Islam: Enduring Values for Humanity. HarperOne.
2. Qur‘on tarjimasi va tafsiri. (2018). Toshkent: Hilol-Nashr.
3. Bible. (New International Version). (1984). Zondervan.
4. The Bhagavad Gita. (2000). Penguin Classics.
5. Rahbarov, A. (2020). Dinshunoslik asoslari. Toshkent: TDYU nashriyoti.

¹ Rahbarov, A. (2020). Dinshunoslik asoslari. Toshkent: TDYU nashriyoti.